



МУРАДИМ ХЭМ УЗЛИКСИЗ БИЛДИРДИРИҮ

илимий-методикалық журнал № 3/1



Нөкис - 2022



МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 3/1 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:
A. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Кенесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұја АЙТБАЕВ
Тұлқин АЛЛАЕРОВ
Умидә БАХАДИРОВА
Фарход БАБАШЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қаҳчор ТУРСУНОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Саодат ТОШТЕМИРОВА
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириүшилер:
Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириү
Министрліги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қаравы менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм
хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гүйалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,
mugallim-pednauk@mail.uz
www.mugallim-uziksiz-bilim.uz

Журналга келген мақалаларға жоғап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириү» журналынан алынды, дең көрсетилүү шарт. Журналға 5-6 бет көлемдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтінде электрон версиясы менен бирге қабыл етіледи. Мақалада көлтирилген мәлімдемелер автор жүзуапкер.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУҮХҮЙЛҮҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Ilmurodova F.Sh. Kurslararo uzviylik asosida tarix fanlarini o'qitishning pedagogik va metodik talablari	78
--	----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Gaipov M., Eshqoraev Q., Abdullaev Sh. O'quvchilarni irratsional tenglamalarni yechishga o'rgatishning zamonaviy metodlari	84
Mardonqulov J .A., Majidov Sh.A. , Ubaydullayeva S.I. Bo'lajak o'qituvchilar kasbyi tayyorlarlik sifatini baholash metodikasini takomillashtirish	86
Usmonov B.Z., Eshqorayev Q.A., Eraliyeva M.M. Tengsizliklarni koordinatalar usulida yechish	91
Abduqodirova P.T. Informatikadan maxsus kompetensiyalarni shakllantirish zarurati	94
Kutlimurotov A.R., Usmonov B.Z., Qurbonboev H. Umumiy o'rtalim maktablarida matnli masalalarini variativ usullarda yechishni o'rgatish usullari	98
Djumabaeva S.K. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslaridastatistik ma'lumotlardan foydalanish metodologiyasi	102
Olimova A.A. Zamonaviy geografik maydonchaning o'quv jihozlari va ularning geografiya fanini o'qitishdagagi ahamiyati	105
Eshqorayev Q.A. Informatika darslarida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi masalalar	109
Abdullahayeva N.A. Geometrik mazmundagi masalalarini kichik yoshidagi maktab o'quvchilarining geometrik bilimlarini oshirishdagagi o'rni	111
Solaeva M.N. Umumiy o'rtalim maktab bitiruvchilariga ba'zi misollarni o'rgatishda kreativ fikrashni shakllantirish ko'nikmlari	116

БАСЛАҮЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

Eshchanova G .O., Erimmetova R.K., Ollayorova B.M. Boshlang'ich sinf o'qish va matematika darslarida interfaol usullardan foydalanishning shakl, metod va vositalari	120
Abdunazarov A.O. Aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omillari	123
Elmuratova D.M., Utanbayeva D .A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatiga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari	127
Abdunazarov A. O. Aqli zaif bolalar toifalari va ularning o'ziga xos rivojlaniishi	132
Sattarova I.M., Maxammatova M.J. Boshlang'ich ta'limgan sifatini oshirishda interfaol usullardan foydalanishning samaradorligi	137
Ubaydullayev I. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish	142
Mamatdalyeva N.B. Uzlusiz ta'limgan sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish	147
Tosheva N.T., Murodova Sh .Sh., Qodirova N.Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq marosimlari vositasida tabiatga muhabbat hissini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	151
Tosheva N.T., Zaynilloyeva G.O., Qodirova N.Z. Katta yoshdagi bolalarni oilaviy va milliy qadriyatlар vositasida axloqiy tarbiyalash	155

ФИЗИКАЛЫҚ ТЭРБИЯ ХЭМ СПОРТ

Turapova Sh.X., Anqaboyev D.B., Xolnazarova D.T. Yosh voleybolchilarni tayyorlashda sport trenirovkasining ahamiyati	163
--	-----

Анализ методических вопросов развития математических способностей младших школьников в условиях непрерывного образования, методические рекомендации будущему учителю начальных классов к применению на уроках математики, обучение использованию и применению теоретических знаний на практике, дидактические игры младшего школьного возраста учить детей математике.

Analysis of methodological issues of the development of mathematical abilities of younger schoolchildren in conditions of continuous education, methodological recommendations for the future primary school teacher for use in mathematics lessons, teaching the use and application of theoretical knowledge in practice, didactic games of primary school age to teach children mathematics.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XALQ MAROSIMLARI
VOSITASIDA TABIATGA MUHABBAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING
PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

Tosheva N.T.

BuxDUP1 p.p.f.d., (PhD) dotsent

Murodova Sh .Sh.

BuxDUP1 1-kurs maktabgacha ta'lim yo'naliши magistranti

Qodirova N.Z

BuxDU Xorijiy tillar fakulteti talabasi

Tayanch so'zlar: ekologiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, madaniyat, tushuncha, ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim tizimi, ekologik tarbiya.

Ключевые слова: экология, дошкольники, культура, понимание, образование, воспитание, система дошкольного образования, экологическое образование.

Key words: ecology, preschool children, culture, understanding, education, upbringing, preschool education system, ecological upbringing.

Inson uchun eng oily qadriyat, bu uning hayoti. Shunday ekan inson hayotiy faoliyatida toza atrof – muhitining ahamiyati nihoyatda katta. Buning uchun har bir inson, bиринчидан ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishni oldindan ko'ra bilishi, uni loyihalashtirishi, rivojlantirishi, boshqarishga asosiy e'tiborini qaratmog'i lozimdir.chunki ekologik vaziyatni oldindan ko'ra bilish tabiat va inson orasidagi nomuvofiq holatlarni bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi. Shu asosda mavjud bo'lgan ba'zi bir nohush holatlarni birmuncha bartaraf qilish mumkin bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, tabiat – odam va olam, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uzviyligi bo'lib, uning mazmunda jamiyat ma'naviy – ruhiy va ahloqiy qarashlari, uning taraqqiyot omillari, hayot mazmuni kabi jarayonlar o'z ifodasini topadi. Tabiat butun mavjudot jonli va jonsiz olamga nisbatan inson munosabatlarini aql – idrok, cheksiz tafakkur orqali barkamollashtirish g'oyasini o'zida mujassam etadi.

Tabiat insonga xos bo'lgan poklik, ezzu niyat, pokiza tuyg'u, tuproqni muqaddas bilish, Vatanni anglash singari ollyjanob fazilatlarni ham o'zida aks ettiradi. Inson – tabiat farzandi, uning bir zarrasi. Tabiatning o'z qonuni qoidasi bor. Tuproq, suv, havo, o'simliklar va hayvonot dunyosi, yer osti va yer ustli boyliklarining barchasi inson ehtiyoji uchun yaratilgandir. Demak, inson uchun tabiat, suv, havo, tuproq hayot manbai. Shuning uchun tabiatni muhofaza qilish bugungi kunda butun jaxonda, mustaqil O'zbekistonda ham davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masala bo'lib qoldi.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, atrof – muhit musaffoligi, ekologik muammolar qadim – qadimdan insonning diqqat markazida bo'lib kelgan. Farzandlarimizga kichik yoshdan

boshlab butun faoliyati jarayonida ekologik tushunchalar berilgan. Atrof muhitni, aholi yashaydigan joylarni toza tutish, ko'cha, hovli, suv havzalari, ariq va chashmalarni iflos qilmaslik bolalarga o'qtirilgan.

Uy hayvonlaridan mushuk va itlarni boqish qoidasiga rioya qilish, parranda va hayvonlarga behuda ozor bermaslik, ularning bemahal o'lishiga sabab bo'lmaslik, bolalarga tushuntirilgan. Suv tiriklik vositasi, hayot omili, poklanuvchi manba, yurt obodonligini ta'minlovchi asosiy zahira deb ta'riflangan. Suv – hayot manbai, yorug'lilikdir, deganlari ham shundan bo'lsa kerak.

Ma'lumki, xalqimizda qadimdan suv har-xil kasalliliklarni daf etuvchi yurtga oboidlilik, elga farovonlik baxsh etib, yer yuzidan qo'lansa hidlar, mikroblarni ketkizuvchi, rushonolik ramzi, deb bilingan. Shuning uchun qurq'oqchilik paytlarida osmonga iltijo qilib yomg'ir yog'ish marosimlari o'tkazishgan, qo'shiqlar kuylashgan.

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish mumkinki, qadim – qadimda xalqimiz hayoti va faoliyatida ekologik tushunchalar va bilimlar o'z ifodasini topgan bo'lib, unda tabiat, atrof – muhit bo'lgan munosabatlarning amaliy yo'llanmasi ishlab chiqilgan. Shuning uchun ham bolalarni yoshligidanoq o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlashga odatlanirilgan.

Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyoda ekologik tarbiya qadimiy ta'limotdir. Dastlab bunday tarbiyaning mezoni kishilarining vijdonlariga yuklangan. Halollik, insof, diyonat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, vatanni sevmoq, sadoqat, muhabbat kabi fazilatlarga ega bo'lgan o'zbek xalqi atrof – muhitni muhofaza etish masalariga alohida e'tibor bergen. Jamiatning barcha a'zolarini eng yosh fuqarolaridan keksa kishilarigacha ona tabiatni asrab – avaylashga, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga, tabiat manbalaridan tejab – ter gab meyorida foydalanish, salbiy fojaviy hollarning oldini olish, saqlab qolish uchun kurashgan. Atrof muhitni doimo pok saqlashga muntazam ravishda ish olib borgan. Poklik, ozodalik, toza zamin, ob – havo, suv kabi ekologik omillarga kishilar eng ongli munosabatda bo'lib, haqiqiy tabiat shaydosi ekanligi ularning fe'l – atrovorda namoyon bo'lgan.

Shuni aytish kerakki, jamiatyatda insонни ekologik jihatdan tarbiyalash shaxs ma'suliyatini oshirish bilan birga, uni mukammallashtirishga yordam beradi. Demak, aholi ongiga "Tabiat – bu men va sen, biz yashaydigan makon, tabiat butun yer kurrsasi mavjudodlari yashaydigan yagona zamin" degan asosiy va amaliy bilimlarini singdirish lozimdir.

Ekologik ta'lim – tarbiya jarayonidan bizgacha saqlanib kelgingan bir qator nodir va aziz hisoblangan asarlardan ma'lum. Masalan : Qur'oni Karim yoki Hadisul shariflarda ekologik tarbiya haqida yorqin fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, ko'pgina buyuk allomalar ham o'zlarining ilmiy asarlarida koinot va zamin odamlar ta'sirida gullab yashnashi va aksinchasi buzulishimi ta'kidalab o'tishgan.

Tarixdan ma'lumki, podsholar, xonliklar davrida ko'plab bog' – rog'lar barpo qilingan. Shulardan Amir Temur Samarqandda 14ta bog' barpo etgan. A.Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek tomonidan esa "Chilstun bog'i" barpo qilingan.

Tabiatshunos olimlarimiz aytganlaridek : "Baliqqa suv, qushlarga tubsiz osmon, jonivorlarga – o'rmon, tog' – tosh, cho'lu biyobon zarur. Insonga esa Vatan kerak. Tabiatni muhofaza etish – Vatanni sevish demakdir".

Tabiatni ona deymiz, ona esa hayotdaggi eng ulug' zotdir. Onani ho'rlagan, unga azob bergen insонни bir umr yuzi qora va zabunduri. Ona tabiat ham shunday, uni asrab ardoqlash, ko'z qorachig'iday saqlash har bir insonning muqaddas va sharafli burchi sanaladi.

Qur'oni Karimda nabotot olami Alloxning insonga ato etgan eng ulug' ne'matlaridan biri ekanligi, bu olam bo'lmasa yer yuzida hayot ham bo'lmasligi qayd etilgan.

Payg'ambarimiz Muhammad sallalohu alayhi vassallamning "Kimki daraxt eksa va uni muhofaza qilishga sabr qilsa va hatto meva berguncha parvarish qilsa, u odamga mevasidan bitgan har bir foyda uchun Alloh huzurida ajr savoblar bo'lgay" degan tabarruk so'zlarini eslash o'rinnlidir.

Biz tabiat ato etgan o‘z nurini tukkan jannatmakon o‘lkamizning har bir qarich yerini tuprog‘ini qadrlaylik. Tabiat in’om etgan yuksak ong, aqlu shurimizni ishga solib, ona – yer oldidagi o‘z farzandlik burchimizni sidqi dildan o‘taylik. Shundagina biz haqiqiy inson bo‘lib, ona – tabiatning mangu e’zoziga sazovor bo‘lamiz. Buning uchun uzlusiz ta’lim tizimida ekologik ta’lim va ma’rifat, ekologik madaniyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish, yoshlardan ongida tabiatga, atrof – muhitiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kishilar ongida hozirga qadar yashab kelayotgan tabiatga nisbatan iste’molchilik nuqtai nazardan yondashish psixologiyasini bartaraf etish muhim ahamiyat hisoblanadi. Respublikamizda ekologik muammolar bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Boladagi ekologik fikr taraqqiyoti faqat oilaga emas, maktabgacha ta’lim muassasalarini faoliyatiga ham bog’liq. Shuning uchun ularga go’zal tarzda tarbiya bermoq, yaxshi xulqlarni o’rgatmoq va ko‘rkam odatlarni tushunturmoq lozimdir. Tarbiya bolani oltin etmoqlik va aksincha tuproq qilmoqlik ham mumkin. Bularning har ikkisida ham ota – onalari, maktabgacha ta’lim – tarbiya maskanlari sabab bo‘ladilar. Shuning uchun ham bola tarbiyasida u yashab turgan sharoit, atrof – muhit, kishilarning faoliyati katta o‘rin tutadi. Bu sohada oila, maktabgacha ta’lim – muassasalarini katta e’tiborga molikdir.

Bolada yoshligidanoq ekologik tarbiya berish juda ham zurdur. Chunki bu davrda bola tol novdasi kabi qayoqqa buksa, o‘sha tomonqa bukiladi. Bolaning badani, ust – boshi doimo ozoda, pok bo‘lmog‘i lozim. Tirnoqlari o‘z vaqtida hamisha silkinib, qimirlab turmoq, qosh ba ko‘zlar bilan ishora qilmoq, kiyim va a’zolarni o‘ynamoq, chetga burilib qaramoq yoki boshqa kishining ovqatlanishiga qarab turmoq, odamlarni oldida kerishmoq, kishilarga yoki ovqatqa qarab yutalmoq, yonida bo‘lganlar bilan yashirinchada so‘zlashmoq, qiyqirib kulmoq, ovozini baland qilib yoki eshittirmay pichirlarb so‘zlamoq, kattalar yoniga kirkanda qo‘lida qo‘lida zont yoki tayoq tutib kirmoq kabi holatlar odobsizlik sanaladi. Bolalarga mehribon bo‘lmoq, ko‘ngillarini topmoq ulug‘lik sanaladi. Sovg‘a ulashilganda kichkinalardan va qizlardan boshlab bermoq odobdandir. Taqiqilanmagan o‘yinlarga ruxsat beriladi. Zehn va xotirani yaxshilashda kungil ochar o‘yinlarning foydasi bordir.

Xalqimizda tarbiya ostonadan boshlanadi, degan yaxshi ibora bor. Binobarin, bunday tarbiyaning eng muhim talablaridan biri shaxsiy namuna, oila ibratdir. Shunday ekan birinchi galda ota – onalar, tarbiyachilar bolalarga ana shu eng muhim unsurlarni tushuntirishlari lozim. Oila ro‘zg‘or tebratishda oziq – ovqatning ko‘p qismi isrof bo‘lishga yo‘l qo‘ymaslik, chiqindillarni ajratilgan joyga tashlash kabilarni o‘rganishlari kerak. Oqibatda biz hayotda tabiat manbalariga, uning ko‘hna an‘analariga, tabiat in’omlaridan tejab – tergab foydalanishga qaratilgan urf – odatlarni bolalar ongiga singdirgan bo‘lamiz. Bu vazifani hal qilishda fan – texnika sohasidagi barcha mutahassislar, fidoiy insonlar yordam berishi lozim.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ekologik tarbiyalash borasidagi kamchiliklarni tarbiyachilar zimmasiga yuklash ham bit oz noto‘g‘ri. Bolalarni ekologik tarbiyalashda xalq ta’limi xodimlari, ijodiy tashkilotlar, ota – onalar qo‘mitalari yaqindan yordam berishlari kerak.

Bolalarda tabiatga oqilona munosabatni shakllantirish va ularda insoniylik fazilatlarni o‘sirishda tarbiyachilar bolalarda mehnatsevarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ularning bilim savyiasi yuqori bo‘lishi kerak. Tarbiyachilar bolalarga gunoh bilan savob haqidagi pand – nasihatlari, ya’ni nonni uvol qilmaslik, ahlat – uyumlarini uy yoki hovliga to‘kmaslik, jonivorlarga ozor bermaslik, daraxt va o‘simliklarni behuda sindirmsilik haqida suhbatlar o‘tkazish ularning bilimlarini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Ma’lumki, tabiat, adabiyot va san‘atni sevgan bola hech qachon yomonlikka qo‘l urmaydi. Bolalarga atrof – muhi muhofazasi mashg‘ulotlarida ham saboq bermoq lozim. Bolada tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish uchun hayat haqida, uning past – baland qirralari haqida suhbatlashish, fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Axir jamiyatimizga

kelajakda fizik, kimyoviy va boshqa turli mutaxasislarga emas, balki katta katta harflar bilan yoziladigan inson kerak – ku.

O'zbek ma'rifat parvar shoiri Abdulla Avloniy shunday degan edi:

“Agar bir kishi yoshligidagi nafsi buzilib ahloqsiz bo'lib, o'stimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turib yulduzga qo'l uzatmoq kabitidir”.

Bolalarda tabiat haqida tushunchalarining tarkib topishida ijtimoiy muhit oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar ham katta ahamiyatga ega. Haqiqiy inson tabiatiga ahloqiy munosabatda bo'lib, yoshlarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi va maqbul bo'lib tarbiyalanishlari uchun zamin hozirlaydi. Bolaning tabiat haqidagi fikri, ongi, tafakkurini shakllantirishda ota – ona, tarbiyachilar atrofida doimo muloqotda bo'ladigan kishilarning ta'siri katta bo'lib ularlardan bolalar bilan bo'lgan munosabatda katta ma'suliyat talab qilinadi. Yosh avlodning tabiatga bo'lgan munosabatini mujassamlashtirishda ta'lim va tarbiya hamda ma'rifatning ta'siri ham beqiyosdir.

Shu o'rinda Sohibqiron Amir Temuringning quyidagi so'zlarini keltirish o'rindilidir: Piri komil shayx Bahovuddin Naqshbandiyining “Kam yegin, kam uxla, kam gapir” degan pand nasihatlariga amal qildim, arkonu davlatga, barcha mulozimlarga ham aytur so'zim shu bo'ldi: “Kam yenglar ocharchilik ko'rmasdan boy – badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar mukamallikka erishasizlar, kam gapiringlar dono bo'lasizlar”. Demak, inson o'zining rivojalanishi va xilma xil ko'rinishlarda tabiat bilan uyg'undir. Hozirgi fan texnika taraqqiyoti jarayonida tabiat manbalaridan foydalanishda ana shu uyg'unlik buzilmoqda, unga nisbatan shavqatsizlarcha munosabatda bo'lmoqdalar. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bolalarda yashil o'rmonlar, o'simlik va hayvonot turlari, foydali qazilmalar, suv havzalari va atmosfera havosi, suv haqidagi tushunchalarni shakllantirish ekologik tarbiyaga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarda tabiatga muhabbat hissini shakllantirishda tarbiyachilarning tabiatga oid yo'nalishdagi pandu – nasihatlar berishi, yaxshi va yomonni ajrata olishga o'rgatishi ularni ezzulikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka undashi har bir bola shaxsida muhim o'rın tutadi. Bolalarga tabiatni muhofaza qilish haqida ma'lumotlar berish, tabiatga muhabbat hissini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, mazkur tarbiyani amalga oshirishda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'mi beqiyosdir. Chunki, tabiat haqidagi tushunchalarni asosiy negizi bolalarga ona suti, oila na'munasi, mahalla, ijtimoiy muhit, ajodolar o'giti, qolaversa butun bir davr kishilarining amaliy faoliyati jarayonida hatti – harakatlar orqali singadi. Buning uchun birinchini galda har bir oilda tabiatga oid savodxonlik shakllangan bo'lishi, sharqona ekologik urf – odatlар o'z aksini topishi lozim.

Albatta buni bolalarga faqat tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish asoslarini o'rgatish bilan chegaralanmasdan, balki ularda tabitga muhabbat hissini shakllantirish, tabiatdan oqilona foydalanish, ma'naviy – madaniy boyliklar yaratishni o'rganishi, shuningdek ularغا tabiatdan faqat foya olish uchungina emas, balki go'zallikk qonunlariga ko'ra o'zgartirishini tushuntirish muhimdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida katta yoshdagi bolalarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish jarayonida quyidagilarga amal qilish maqsadga muvoofikdir.

Birinchidan, katta yoshdagi bolalarning tabiat hissiyorliga ta'sir etish ular qalbida yoshlid chog'laridanoq tabiatga muhabbat uyg'otish lozim. Bu tarbiya qanchalik erta boshlanib, izchil rivojlantirilsa, u shunchalik ijobji samara beradi.

Ikkinchidan, bola ongida tabiatni muhofaza etish va u bilan oqilona o'zaro ta'sir masalalarida faol hayotiy nuqtai nazarini shakllantirish zarur. Har bir bolada tabiatni asrab – avaylash ma'suliyatini tarbiyalash, uning yutuqlaridan amaliy maqsadlarda foydalanishga o'rgatish lozim.

Shunday ekan, maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyachilarini ekologik qonunlarni

yaxshi bilishlari lozim. Bunda ular tabiat va jamiyatning o'zaro munosabati to'g'risidagi qarashlar tizimi, ya'ni bu moddiy kishilarning o'rni, ahamiyati va mohiyatini aks ettiruvchi dunyoqarashlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Shuningdek maktabgacha ta'lif muassasalarida tabiat monitoringini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Monitoringda atrof, tabiy muhit va tabiy resurslarning davriy o'zgarishlarini (kadastr ma'lumotlariga asoslangan tarzda) kuzatib borish, hisobga olish, baho berish va istiqbolini belgilash tizimini chuqur o'rganish tarbiyachilarning ekologiya haqidagi bilimlarini oshirib beradi. Bunda ular tabiatga munosabat, atrof – muhitni muhofaza qilish, tabiatni milliy va xalqaro ahamiyati haqida bilinga ega bo'lishlari lozim.

Chunki, maktabgacha ta'lif muassasalarini tarbiyalanuvchilari hayotga mustaqil qadam qo'yanlarida tabiatning "bo'y sindiruvchi" siga emas, balki uning yaratuvchisiga, himoyachisiga aylanishi kerak. Bu ishda shubhasiz ularga ustozlari, murabbiylari va tarbiyachilari yordam berishlari maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF–60-son Farmoni <https://lex.uz/pdfs/5841063>
2. 2017 yil 28 iyuldagи «Ma'naviy-ma'rifiy ishlар samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160-soni qarori.
3. Авазон III. Экологическое воспитание старшеклассников сельской в школе процессе краеведческой деятельности. АКД 1993 у.
4. Alimbetov N. Murakkab ekologik vaziyat sharoitida iitisodiy va ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish. NDA, T, 2000 y.
5. Mirzayev T. , G'ofurov Z. Tabiatni e'zozlash-umumbashariy muammo. Toshkent: «Yangi asr avlodи», 2001 y.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagи bolalarda xalq marosimlari vositasida tabiatga muhabbat hissini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, maktabgacha yoshdagи bolalarda atrof- muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar toppish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Shu ma'noda maqolada maktabgacha ta'lif muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi keng yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются педагогические особенности формирования у дошкольников любви к природе через народные обряды, формирование у дошкольников знаний, умений и компетенций об окружающем мире и его проблемах, а также поиск оптимальных путей их решения. В связи с этим в статье раскрывается цель экологического воспитания в дошкольном образовании.

SUMMARY

This article discusses the pedagogical features of forming a love of nature in preschool children through folk rituals, the formation of knowledge, skills and competencies in preschool children about the environment and its problems, as well as finding optimal solutions to them. In this regard, the article elaborates on the purpose of environmental education in preschool education.

KATTA YOSHDAGI BOLALARNI OILAVIY VA MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA AXLOQIY TARBIYALASH

Tosheva N.T.

BuxDUPI maktabgacha ta'lif kafedrasи p.p.f.d., (PhD) dotsent

Zaynilloyeva G.O.

BuxDUPI 1-kurs maktabgacha ta'lif yo'nalishi magistranti

Qodirova N.Z

BuxDU Xorijiy tillar fakulteti talabasi.